


IN VOLUME #1
ISSUE#1,
JUNE 2023



«YANGI O'ZBEKISTONDA

TABIY VA IJTIMOYIY-GUMANITAR

FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY

AMALIY KONFERENSIYASI

OJS / PKP
ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER



**"YANGI O‘ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIIY KONFERENSIYASI**
Volume 1, Issue 1, June 2023



**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE”
MCHJ**

**"YANGI O‘ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-
GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIIY KONFERENSIYASI**

Volume 1, Issue 1

2023. June

**«Yangi o'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar»
respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 30.06.2023 yil.**

Ushbu to'plamda « **Yangi o'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar** » ilmiy-uslubiy jurnali 2023 yil 1-soni 1-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Konferensiya tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.


OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

**“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ**



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir, Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Geodeziya, kartografiya, geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mas'ul kotib: Sobirov Javoxir Xayrulla o'g'li Urganch davlat Universiteti talabasi

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadridin o'g'li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Geodeziya, kartografiya, geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Matchanov Otabek Jumanazarovich Urganch Davlat Universiteti, Geodeziya, Kartografiya, Geografiya kafedrası Dotsenti. Yonalish - Tabiiy Geografiya

Samandarov Ergash Iskandarovich, Urganch davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va xayot faoliyati xavfsizligi kafedrası, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Allabergan Kutlimuratovich, Urganch davlat unversiteti Geodeziya, kartografiya, geografiya kafedrası o'qituvchisi.

Babajanova Sanabar Yuldashbayevna, Urganch davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti "Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrası, qishloq xo'jalik fanlari bo'yicha falsafa doktori-PhD., dotsent.

Masharipov Adamboy Atanazarovich, Urganch davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti "Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrası dotsenti.

Kuchkarova Dilbar Pirlapasovna, Urganch davlat universiteti geografiya fani o'qituvchisi.

Raximova Anamoy, Qo'shko'pir tumani 25-son umumta'lim maktabi Manaviy ma'rifiy ishlar direktori o'rinbosari. Geografiya fani o'qituvchisi

Ismoilova Himoyat Matnazarovna, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrası, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismayilova Intizar, Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrası, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Xamroyev Muxtor Ozodovich, Urganch davlat universiteti, Geodeziya, kartografiya, geografiya kafedrası, Geografiya fanlari nomzodi, dotsent

NARKOLEPSIYA VA UNING TURLI XIL KO'RINISHLARI TAVSIFI

Salimova Marjona Salomovna

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti amaliy psixologiya yo'nalishi 3-
kurs talabasi

Markaziy asab tizimining surunkali uyqu buzilishi kasalliklari bo'lgan narkolepsiya va uyqusizlik odamlarga butun umri davomida uyquchanlik va uyqusizlik hamroh bo'ladigan patologik holat bo'lib, davolash choralari odatda kam ta'sir qiladi, mehnat qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Uyqu hujumlari paytida bemor ijtimoiy jihatdan muvozanatsiz holatda qoladi.

Gigienik to'liq qiymatli uyqu – bu odamning yoshiga muvofiq uyquning davomiyligi va chuqurligining aniq belgilangan vaqtida uxlash va uyg'onish. Tananing to'liq va qimmatli dam olishi uchun nafaqat uyquning davomiyligi, balki uning chuqurligi ham muhimdir. Chuqur uyqu yetishmasligi tananing yetarlicha dam olishni ta'minlamaydi. Uyqusizlik odamni zaiflashtiradi, mehnat qobiliyatini pasaytiradi, turli fojialarni keltirib chiqaradi. Hozirgi vaqtda aholining aksariyati 1,5-2 soat kamroq uxlaydi. Hayotning tezligi, markaziy asab tizimiga axborot oqimining ko'pligi uyquga to'sqinlik qiladi. Insonning etarli darajada uxlamasligi uning uyqu qarzini oshiradi, buning natijasida aqliy va jismoniy mehnat faoliyati kamayadi. Uyqu qarzidan xalos bo'lish uchun odam etarli darajada uxlashi kerak. Mutaxassislar uyqu buzilishining 15 dan ortiq turlarini ajratadilar. Ulardan eng xavflisi – uxlash vaqtida nafas olishning vaqtincha to'xtab qolishi. Bu holat ko'proq yosh bolalarda uchraydi, bu ularning to'satdan vafot etishiga olib keladi. Uyquning buzilishini katta ijtimoiy muammo deb hisoblagan holda, ularni o'rganish va davolashga etarlicha e'tibor berish kerak. Uyqu buzilishining ko'plab sabablari va turlari mavjud va eng keng tarqalgan va doimiy turlardan ikkitasi narkolepsiya va uyqusizlikdir. Narkolepsiya, ya'ni shunchaki haddan tashqari uxlashni anglatadi, bu markaziy asab tizimining surunkali kasalligi bo'lib, 4 ta asosiy ko'rinishga ega murakkab uyqu buzilishi bilan tavsiflanadi:

- 1) O'tkir kunduzgi uyquchanlik va to'satdan uxlab qolish hujumlari;
- 2) Katapleksiya (to'satdan zaiflik, charchoq xurujlari);
- 3) Uyqu falaji;

4) Gipnagogik (uyqu paytida) va gipnopompik (uyg' oq paytida) gallyutsinatsiyalar. Narkolepsiya – bir necha kun davomida uxlab qolish bilan namoyon bo'ladigan patologik holat. Bunday bemor to'satdan uxlab qoladi va 2-3 kun yoki undan ham ko'proq vaqt davomida uxlaydi, ular kunduzi ham, kechasi ham uyg'onmaydi. Bu gormonal o'zgarishlar, infeksiyalar, ba'zida miyaning yallig'lanish kasalliklari (ensefalit) va miya shikastlanishlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'tkir stress va ruhiy kasallik. Biroq, narkolepsiyaning aniq sabablari mutaxassislar tomonidan to'liq tushunilmagan, uning mexanizmi uyg'onish uchun mas'ul bo'lgan oreksin (miya neyrotransmitteri) etishmasligida yotadi va bu moddaning etishmasligining sababi noma'lum. Shuningdek, miya omurilik suyuqligida hipokretin-1 neuropeptidining etishmasligi mavjud bo'lib, bu lateral gipotalamusdagi autoimmun jarayonda HLA bilan bog'langan gipokretin o'z ichiga olgan neyronlarning yo'q qilinishiga olib keladi. Ushbu uyqu buzilishining belgilari va kechishi quyidagicha: kun davomida to'satdan uxlab qolish va bir necha kun davomida uxlab qolish, tungi uyqu buzilishi, gallyutsinatsiyalar, xotira buzilishi, ba'zida tutilishlar, qattqlik, xatti-harakatlarning buzilishi. Epidemiologiya ma'lumotlariga ko'ra, aholi orasida narkolepsiyaning tarqalishi 10 000 kishiga 5-7 tani tashkil qiladi. Evropa, Yaponiya va AQShda kasallikning tarqalishi 1000 aholiga 0,2 dan 1,6 gacha. Odatda 20 yoshdan 50 yoshgacha rivojlanadi, ko'pincha 15 yoshdan 30 yoshgacha tashxislanadi va erkaklarda ham, ayollarda ham teng ravishda uchraydi, ammo yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu ko'proq erkaklarda uchraydi. Kasallikning genetik asoslari aniqlanmagan. Egizaklardagi moslik ham past, 25%ga teng. Narkolepsiyaning xarakterli ko'rinishlari navbatma-navbat namoyon bo'ladi, bemorlar to'satdan ular istamagan holatda va uxlash uchun mutlaqo yaroqsiz bo'lgan holatlar va sharoitlarda uxlab qolishadi. Ular uyg'onganlarida, o'zlarini energiyaga to'la va tetik, quvnoq his qilishadi, lekin tez orada, bir necha soatdan so'ng, bu tuyg'u kuchli charchoq, zaiflik va uyquchanlik bilan almashtiriladi va yana uyqu hujumlari boshlanadi. Bu narkolepsiyaning dastlabki ko'rinishi bo'lib, undan keyin katapleksiya belgilari rivojlana boshlaydi. Bunday holda, kuchli ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ular fonida, to'satdan zaiflik va charchoq holati paydo bo'ladi. Zaiflik mushak tonusining

keskin yo'qolishi bilan bog'liq. Hujum shu qadar tez rivojlanishi mumkinki, ba'zi hollarda bemor yiqilib, jarohat olishi mumkin va bu hujumning davomiyligi bir necha soniyadan bir necha daqiqagacha davom etishi mumkin. Rivojlanayotgan navbatdagi alomat gipnagogik va gipnopompik gallyutsinatsiyalar bo'lib, uxlab qolish yoki uyg'onish paytida paydo bo'ladigan yorqin tushga o'xshash akustik yoki vizual gallyutsinatsiyalardir. Ular "uyg'ongan tushlar" deb ham ataladi, chunki odam hali uxlamaganligini, lekin allaqachon tush ko'ra boshlaganini tushunadi. Bu holat odatda qo'rquv va tashvish bilan birga keladi.

Kasallikning og'ir ko'rinishlaridan biri – uyqu falaji, uyg'onganidan keyin to'liq harakatsizlik bilan tavsiflangan holat. Bunday holda, inson to'liq ongli, vaziyatni adekvat baholaydi, lekin harakat qila olmaydi. Faqat ko'zning miltillashi va harakati saqlanib qoladi. Uyqu falaji ertalab tez-tez uchraydi, lekin u kechqurun ham sodir bo'lishi mumkin. Bu holat ayniqsa, agar harakatsizlik fonida qo'rqinchli gallyutsinatsiyalar bo'lsa, qo'rqinchli bo'lishi mumkin, chunki bemor uning ongida paydo bo'ladigan qo'rqinchli tasvir naqshlariga qarshi hech qanday harakat bilan javob bera olmaydi va natijada qo'rquv bemorga ikkilamchi stress va tushkunlikni beradi. Bemorlarning taxminan 10 foizida yuqoridagi 4 ta simptomatik belgilarning barchasi berilgan ketma-ketlikda kuzatiladi. Kasallik 2 toifaga bo'linadi:

- I. Gipokretin etishmovchiligi katapleksiya bilan kechadigan narkolepsiya (mushaklarning vaqtinchalik kuchsizligi yoki to'satdan hissiy reaksiyalar natijasida falaj);
- II. Katapleksiyasiz oddiy gipokretin bilan narkolepsiya.

Kasallik belgilari paydo bo'lgandan boshlab tashxis qo'yishgacha 10 yil davom etishi mumkin. Ushbu kasallikning aniq tashxisidan so'ng, somnolog tomonidan davolanish tavsiya etiladi.

Uyqusizlik esa uxlay olmaslik bilan kechadigan surunkali kasallikdir. Aholining 10% (ba'zi rivojlangan mamlakatlarda 20%) uyqusizlikdan aziyat chekadi, bemor oylar va yillar davomida yaxshi uxlamasligi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, erkaklarining taxminan 30 foizi, ayollarning 37 foizi va har 4 homilador ayoldan 3 nafari bu muammoga duch keladi. Odatda, odam kuniga 6 dan 10 soatgacha o'rtacha 7-8 soat uxlashi kerak va bu asosan kechasi. Uyqu mexanizmining ishlamay qolishi, tez-tez uyg'onish va umumiy dam olish vaqtining qisqarishi charchoqning

rivojlanishiga, diqqat va konsentratsiyaning pasayishiga olib keladi. Bu jarayon gormonal tartibga solishning buzilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Xususan, kechalari kortizol va adrenokortikotrop gormonlar miqdori ortib boradi.

Bemor uxlab qolishida qiynaladi, uzoq vaqt davomida qulay holatni qidirib uxlab qololmaydi, tun davomida bir yoki bir necha marta uyg'onadi, erta tongda uyg'onadi, uyqu davomiyligi 6,5 soatdan oshmaydi. Bir-ikki kun uxlay olmaslik barchamizga xos bo'lib, bunday holatlar ayniqsa nevrozlarda tez-tez uchraydi. Biroq, uyqusizlik uzoq muddatli uyquni yo'qotish bilan namoyon bo'ladigan kasallik bo'lib, jiddiy davolanishni talab qiladi. Uyqusizlik bilan og'rikan bemor boshqa odamlar kabi ishga boradi va uning aqliy va jismoniy faoliyati boshqalarnikidan farq qilmaydi. Hatto uyqusizlikka chalingan ba'zi odamlar kechalari yaxshi asarlar yozadilar va ixtiro qiladilar. Agar uyqusizlik bilan og'rikan bemorda boshqa nevrologik kasalliklar aniqlansa, u holda nevrologik va neyropsikologik kasalliklar aniqlanishi mumkin. Kasallikni davolashda uni keltirib chiqaradigan omilga e'tibor qaratish, bu sababni bartaraf etish kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Ahmedova Nilufar Mamasidikovna. (2023). OSOBENNOSTI NEALGORITMICHESKIX METODOV VA IX ROLL V RESHENIE ZADACH. E konferentsiya zonasi, 52–58. <http://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/2015> dan olindi.
2. Masharipov, V. U., Mirvəliyeva, N. R., & Abdullaev, U. M. (2023). Mestnyy immunitet i spetsficheskaya sensibilizatsiya k antigenam bakteriy u bolnyh tonzillitom. Fan va ta'lim, 4(2), 392-400.
3. Stiv Norman, Somnologiya: Somnologiya va uyqu tibbiyoti sohasining o'sishi va asosiy komponentlar va Buildin uyqu dasturlari uchun rahbarlik tamoyillari: uyqu etishmasligini davolash, 2020 g.
4. V. M. Kovalzon, Osnovy somnologii: fiziologiya va neyroximiya tsikli «borstvovanie – son».
5. Amin Gyun, Elektroansefalografiyaning maxsus holatlari: Doktor Amine Guen, Nevrologiya, Somnologiya, Neyroreabilitatsiya, Elektroansefalografiya, Neyrofiziologiya va Nerv tizimining funksional tadqiqotlari, 2020 g.
6. Teofilo Li-Chiong, M.D.Somnologiya 3: Bir hafta oxirida uyqu tibbiyotini o'rganing, 2017 yil.
7. Axmedova, N. M. (2017). B pomoshch arifmetike. Molodoy uchenyy, (4-2), 14-15.

CHANGLANISH VA URUG'LANISHNING AHAMIYATI

Muhammadjonov Burhonbek va Fozilov Muhammad Amin

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

talabalari

Anotatsiya: Botanikada changlanish va urug'lanishning ahamiyati, o'simliklarning taxonlarini tushunish, nomlash va tarqatish, o'simliklarning taksonomiyasi, ekologiyasi, fiziologiyasi, genetikasi va evolyutsiyasi haqida ilmiy bilimlarning rivojlanishiga muhim ta'sir qiladi. Bu jarayonlar o'simlikshunoslik sohasidagi kommunikatsiyani kuchaytiradi, o'simliklar olamidagi bilimiy hamkorliklarni o'rnatadi va o'simlikshunoslik sohasidagi umumiy ilmiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: Changlanish, urug'lanish, klestogamiya, anemofil, gidrofil, entomofil, ornitofil, mirmekofiliya, S.G. Navashin, sinergid, antipod, urug'

ВАЖНОСТЬ ОПЫЛЕНИЯ И ОПЛОДОТВОРЕНИЯ

Аннотация: Важность опыления и оплодотворения в ботанике имеет важное значение для развития научных знаний о понимании, именовании и распространении таксонов растений, таксономии растений, экологии, физиологии, генетики и эволюции. Эти процессы улучшают общение в области науки о растениях, устанавливают научное сотрудничество в мире растений и развивают общие научные навыки в области науки о растениях.

Ключевые слова: Опыление, оплодотворение, клеостогамия, анемофил, гидрофил, энтомофил, орнитофил, мирмекофил, С.Г. Навашин, синергид, антипод, ковер.

THE IMPORTANCE OF POLLINATION AND FERTILIZATION

Abstract: The importance of pollination and fertilization in botany has important implications for the development of scientific knowledge about the understanding, naming, and distribution of plant taxa, plant taxonomy, ecology, physiology, genetics,

and evolution. These processes enhance communication in the field of plant science, establish scientific collaborations in the plant world, and develop general scientific skills in the field of plant science.

Changlanish, o'simliklarda — changlarning urug'chi tumshuqchasiga (gulli o'simliklarda) yoki urug'kurtakka (ochiq urug'lilarda) tushishi. Changlanishdan so'ng changdan chang naychasi rivojlanadi; naycha tugunchaga qarab usadi. Naycha orqali urug' hujayralar — spermitlar urug' kurtakdagi tuxum hujayraga yetib boradi. Uruglangan tuxum hujayradan murtak rivojlanadi. Gulli o'simliklarda chetdan va o'zidan Changchi sodir bo'ladi. Chetdan changchida bir gulning changdonidagi changlar ikkinchi gul urug'chisi tumshuqchasiga, o'zidan changchidan changlar shu gul urug'chisi tumshuqchasiga tushadi. Chetdan changlanish hosil bo'ladigan yangi organizm urug'li o'simliklar belgilari kombinatsiyasiga ega bo'lgani uchun o'zidan changlanishga nisbatan biologik ustunlikka ega. O'z - o'zidan changlanish esa tur belgilarining turg'unlashuviga imkon beradi.

Gul yetilganidan keyin changdonda yetilgan changning onalik tumshuqchasiga tushishi changlanish deb ataladi. Changlanishni quyidagi 2 ta usuli mavjud.

1. O'z-o'zidan changlanish.

2. Chetdan changlanish

Tabiatda ko'pchilik o'simliklar kleystogamli gullar hosil qilsa (Yopiq gullaydigan gullar), ayrimlari xaziogamli (ochiq gullovchi) gullar hosil qiladi. Masalan: yeryong'oqda tuproq yuzasidan yuqori qismida xaziogamli gul hosil qilsa, tuproq ostid kleystogamli gul va meva hosil qiladi.

O'simliklarning o'z-o'zidan changlanishi Ch. Darvin tomonidan 27 yil davomida o'rganilgan. Natijada u shunday xulosaga kelgan: *Chetdan changlanish nasil sifatini yaxshilanishiga olib keladi.* Hashoratlar yordamida changlanuvchi o'simliklar entomofil o'simliklar deyiladi. O'simliklarning hashoratlar yordamida changlanishi tabiatning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Changlanishda asalari, kapalak, pashsha, qo'ng'iz, chumoli va boshqa hashoratlar muhim rol o'ynaydi. Nektar tarkibi 25 - 95% suv, 3-72% glyukoza va tamli shakarga to'g'ri keladi. [1.]

Agar bir guldagi changchi, o'sha guldagi urug'chini changlantirsa o'z-o'zidan changlanish sodir boiadi. O'z-o'zidan changlanish vaqtida ko'pincha urug' hosil bo'lmaydi yoki u puch bo'lib qoladi. Ba'zan o'z-o'zidan changlanish vaqtida hosil

boiadigan uruglarda nasl belgilari sof holda saqlanib qoladi. Bu xil changlanishdan Melksiyada sof individ liniyani ajratib olishda qo'llaniladi. Bir gulni shu tur yoki navga oid boshqa o'simlik gulining change hilan changlanishiga chetdan changlanish yoki ksenogamiya (yunon. ksenos — boshqa) deb ataladi. Ksenogamiya biologik jihatdan o'simliklar uchun qulaydir. Bunday changlanish irsiy xossalarning mustahkamlanishiga olib keladi va tumi yashash sharoitiga yaxshiroq moslashadi. Shuning uchun ham o'simliklar gulining tuzilishi va ekologiyasida chetdan changlanishni ta'minlaydigan ko'pdan ko'p xususiyatlar borligini ko'ramiz.[2]

O'simliklar jinsiy organlarining (changchi va urug'chilami) turli muddatlarda yetilishiga dixogamiya (yunon. dixos — ikki qism, bo'lak; gameo — qo'shilish) deyiladi. Ikki jinsli gullarda changchilar urug'chiga nisbatan oldin yetiladi, bu hodisaga proterandriya (yunon. proteros — ertaroq; andros — erkak) deb ataladi. Proterandriya ko'proq chinniguldoshlar, murakkabguldoshlar, soyabonguldoshlar, g'o'zagu Idoshlar (gulxayridoshlar), geranguldoshlar, piyozguldoshlar va boshqa ko'pgina o'simliklarda uchraydi. Ba'zi ikki jinsli gullarda umg'chilar changchilarga nisbatan ertaroq ochiladi, bu hodisaga proteroginiya (proteros — ertaroq; ginye — ayol) deyiladi. Bunday gullar butguldoshlar, atirguldoshlar, zubturumdoshlar, g'alladoshlar va boshqalar. Proterandriya proteroginiyaga nisbatan ko'proq tarqalgan. Bunga asosiy sabab changchilarning urug'chilarga nisbatan oldinroq yetilishi. Ikki jinsli o'simliklarda o'z-o'zidan changlanish sodir bo'lmasligi uchun, guldagi urug'chining ustunchasi uzun yoki qisqa bo'lishimurkin.

Bunday hodisaga geterostiliya (yunon. geteros - har xil; styulos - ustuncha) deyiladi. Geterostiliya navro'zdoshlar, gazakdoshlar va boshqa o'simliklarda uchraydi.[2]



Changlanish turlari.

Chetdan changlanish – changlanishning bu turida o‘simlik gulining changi boshqa bir o‘simlik urug‘chisining tumshuqchasiga tushadi. Chetdan changlanishning sodir bo‘llishida hamkorlik qiladigan omillar nihoyatda turli – tumandir . Ko‘pchilik o‘simliklar guli bir jinsli, boshqalarining changchisi urug‘chisiga nisbatan kalta uchinchilarning changchisi va urug‘chisi bir vaqtda yetilmaydi natijada urug‘lanish kuzatilmaydi. Chetdan changlanishda o‘simlik qo‘shimcha changlanishga yordam beradigan tashqi muhit omillariga muhtoj bo‘ladi.

Bir o‘simlikning yetilgan changi ikkinchi o‘simlikning urug‘chsi tumshuqchasiga shamol (anemofiliya), suv (gidrofiliya), hasharotlar (entomofiliya), qushlar (ornitofilliya), chumolilar (mirmekofiliya) yordamida tushadi. [3]

Anemofiliya (yunoncha: anemos — shamol va phileo — sevaman) — shamol orqali changlanish, o‘simlik changdoni-dagi changning urug‘chi tumshug‘iga yoki urug‘kurtak-ka shamol vositasida kelib tushishi. Anemofiliya eman, qayin, qayrag‘och kabi daraxtlarda, arpa, bug‘doy, makkajo‘xori va ochiq-urug‘li o‘simliklarsa bo‘ladi.

Gidrofiliya – changlanishning eng kam uchraydigan va noodatiy turi hisoblanadi. Bunda chang donachalari urug‘chi tumshuqchasiga aynan suv yordamida yetib boradi. Gidrofil o‘simliklar ikki guruhga bo‘linadi:

1) Chang donachalarini suv yuzasi bo‘ylab tarqatuvchi o‘simliklar. Masalan, vallisneriya o‘simligining changchili gullari o‘z changini suv yuzasiga sochadi, chang donachalari suz yuzasining sekin harakati natijasida urug‘chi tumshuqchasi tomon oqib boradi.

2) Chang donachalarini suv osti bo'ylab tarqatuvchi o'simliklar. Masalan, dengiz o'tlarining urug'chili gullari suv bilan qoplangan holda bo'ladi, chang donachalari ularga suv massasi bo'ylab suzib kelib changlantiradi.

Suv yuzasi bo'ylab changlanuvchi gidrofiliya nisbatan ko'p uchraydi va u shamol yordamida changlanish bilan haqiqiy gidrofiliya o'rtasidagi oraliq formaga o'xshaydi. Gidrilla, botqoqchi, ruppiya, zostera, elodeya kabi o'simliklarning gullariga suv yuzasining mavjlanib harakatlanishi yordamida chang donachalari yetib boradi. Spiralsimon vallisneriya (*Vallisneria spiralis*) o'simligida chang donachalari tumshuqchagacha suzib boradi. Potamogenton kabi ayrim dengiz o'tlarida ham suv yuzasi bo'ylab changlanish kuzatiladi.

Haqiqiy suv massasi bo'ylab changlanadigan o'simliklarga bir urug'pallalilarga mansub nayada turkumi vakillari misol bo'ladi. ularning chang donachalari aynan suv ichida urug'chi tumshuqchasiga yetib boradi. Shu bilan birga *Posidonia australis* va *Zostera marina* kabi dengiz o'tlari ham aynan shu usulda changlanadi.

Shu bilan birga aynan yomg'ir suvlari bilan changlanuvchi o'simlik turlari mavjud. Ular yomg'ir tomchilari hisobiga yuzaga kelgan o'simlik yuzasidagi kichik suv oqimi hisobiga gul changini tarqatadi. Ayrim orxideya turlari atrofda tabiiy changlantiruvchilar miqdori kamaygan vaqtda shu usulda o'z-o'zidan changlanadi.[4]




Hasharotlar yordamida changlanish.

Chang urug'chining tumshuqchasiga tushgandan so'ng ma'ium vaqt (15 — 45 min, bir necha soat yoki bir necha hafta) o'tgandan keyin bo'rtib o'sadi va uning sifonogen (vegetativ) hujayrasidan hosil boigan chang naychasi apertur orqali chiqib ustuncha to'qimasi bo'ylab o'sib tuguncha tomon yo'naladi. Shundan so'ng eng hayotchan va kuchli naycha urug' yo'li (mikropile)ga birinchi bo'lib yetib keladi va shu orqali urug'murtakka o'tadi. Bu hodisaga parogamiya deb ataladi. Ba'zan chang naychasi xalaza orqali to'g'ridan-to'g'ri urug'murtak yoki embrión xaltasiga o'tadi - bunga xalazagamiya deb ataladi. Xalazagamiyani birinchi marta 1894-yili Treybom degan oli Avstraliya qit'asida o'sadigan, qadimdan saqlanib qolgan kauzarin degan o'simlikda, keyinchalik S. N. Navashin esa oq qayinda aniqlagan. Chang naychasi urug'murtak xaltasiga yetgandan so'tig uning devori eriydi. Chang naychasi embrión xaltasining markaziy yadrosi tomon harakat etadi va ishqalanish natijasida uning uchi eriydi. Chang naychasi ichidan ikkita sperma hujayralari embrión xaltasiga kiradi. Sperma hujayralaridan bittasi tuxumhujayra yadrosiga, ikkinchisi embrión xaltasining ikkilamchi yadrosiga qarab yo'naladi va u bilan qo'shiladi. Natijada yopiqurugii o'simliklar uchun eng muhim xususiyatlardan biri qo'sh mug'lanish sodir boiadi. Qo'shloq urug'lanishni 1898-yili rus botanigi S. G. Navashin piyozdoshlar oilasiga mansub *Lilium martana* va *Fritillaria tenella* degan o'simliklarda aniqlagan.

Keyinchalik urug'langan tuxumhujayra yadrosidan murtak, ikkilamchi triploid yadrodan esa endosperm taraqqiy etadi. Shuning uchun ham yopiq urug'li o'simliklarning endospermi ochiq urug'lilar endospermidan farq qiladi.[2]

Sinergid va antipodlar urug'lanishdan so'ng yo'qolib ketadi. Urug'kurtak asta-sekin *urug'ga* aylanadi. Urug' po'sti integumentlar va qisman nutsellusdan hosil bo'ladi. Nutsellusdan ba'zi hollarda tashqi oqsil deb ataladigan *perisperm* ham shakllanadi. Tugunchaning o'zi esa *mevaga* aylanadi. Ko'pchilik gulli o'simliklarda meaning hosil bo'lishida gulning boshqa a'zolari ham qatnashadi.



3-rasm. Gulli o'simliklarda qo'sh urug'lanish:

1 – urug'chi tumshuqchasida chang o'sishi va urug'kurtakka o'sib kirishi; 2 – murtak xaltasida qo'sh urug'lanish jarayoni.

Qo'sh urug'lanish barcha gulli o'simliklarga xos hususiyat hisoblansada, bazi bir arxideyadoshlar, zarpechakdoshlar oilalariga mansub o'simliklarda bir marta urug'lanish hodisalari uchraydi. Bunda ko'pincha bitta spermioy tuxum hujayra bilan birlashadi. Odatda bu urug'lanish jarayonidan so'ng puch urug'lar hosil bo'ladi, bu urug'larda endosperm bo'lmaydi urug'murtak ko'pincha o'ladi. Bu jarayon ham birinchi bo'lib 1900 yilda S.G. Navashin tomonidan kashf qilingan edi.

Xulosa.

Changlanish va urug'lanish o'simliklar uchun katta ahamiyatga ega jarayonlardir. Bu jarayonlar o'simlikning tuzilishi, funktsiyalari, o'simlikning o'sish va o'simlikning muhit bilan aloqalarini ta'minlayadi. Quyidagi katta ahamiyatlar bilan bir qator o'simliklar uchun changlanish va urug'lanishning ahamiyatini ta'riflash mumkin:

1. Tuzilish va rivojlanish: Changlanish va urug'lanish jarayonlari o'simliklarning tuzilish va rivojlanishini ta'minlayadi. O'simliklar urug'lanish yordamida qon tomirlarini, hujayralarni, tarkibiy organellalarni o'shurish va rivojlantirish, o'simlikni o'sishini va rivojlanishini ta'minlayadi.
2. Suv va mineral elementlarni olish: Changlanish va urug'lanish jarayonlari o'simliklar uchun suvni va mineral elementlarni olishda muhim rol o'ynayadi. O'simliklar suvni o'sak sula sifatida olib, rizomalar orqali olishlari, kishki xujaliklarida suv transportini ta'minlashi, suvni hujayralarga murojaat qilish orqali o'simlikning fiziologiyaviy kerakli holatlarni bajarishini ta'minlayadi.
3. Fotosintez: Changlanish va urug'lanish jarayonlari o'simliklar uchun fotosintezning asosiy jarayonlarini amalga oshiradi. Fotosintez o'simliklar uchun energiya olishning asosiy usulidir. Fotosintez jarayoni o'simliklar uchun oksigen yaratish, qorong'u (sakar) sintezi va qo'shimcha energetik moddalar yaratishda muhimdir.
4. Gaz almashinuvi: Changlanish va urug'lanish jarayonlari orqali o'simliklar karbondioksiddan oqsil almashinuvi yordamida oksigenni olishadi. O'simliklar oksigenni fotosintezda ishlatish va moddalar o'zgarishlarida foydalanish uchun gaz almashinuvi keraklidir.
5. Fitogormonlar va kimyoviy o'zgarishlar: Changlanish va urug'lanish jarayonlari orqali fitogormonlar va kimyoviy o'zgarishlar o'simlikning xususiyatlari va reaksiyalarni ta'sir qiladi. Fitogormonlar o'simlikning o'sishini, o'simlik organlarining shakllanishini va rivojlanishini ta'minlayadi. Kimyoviy o'zgarishlar esa o'simlikning hujayralarida kimyoviy reaksiyalar yordamida sodir bo'ladi va o'simlikning metabolizmini ta'minlayadi.

Shu sababli, changlanish va urug'lanish o'simliklar uchun ahamiyatli jarayonlardir, ular o'simlikning tuzilishini, rivojlanishini, fotosintezni, suv va mineral almashinuvi,

gaz almashinuvi, fitogormonlarni ta'sir qilishni va kimyoviy o'zgarishlarni ta'minlayadi. Bu jarayonlar o'simliklar uchun o'ziga xoslik, to'qimalarning shakllanishi, o'simlik organlarining tuzilishi, o'sish va o'simlikning muhit bilan aloqalarini ta'minlayadi

Foydalanilgan adabiyotlar va elektron manbalar.

1. <https://azkurs.org/ozbekiston-respublikasi-qishloq-va-suv-xojaligi-vazirligi>
2. G.S.Tursinboyeva, G.M.Duschanova. Botanika o'simliklar morfologiyasi va anatomiyasi.
3. S.M.Mustafayev. Botanika (anatomiya, morfologiya, sistemtika)
4. <https://hujayra.uz/gidrofiliya-yordamida-changlanish>

Xalqaro huquq sohasining ahamiyati

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi **Tangirov Jaloliddin**

Annotatsiya: Inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish va ularni muhokama qilishning taminlanishi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Xalqaro ommaviy huquq xalqaro munosabatlarda qatnashadigan va ishtirok etadigan davlatlarning yuridik munosabatlarini huquqiy jihatdan yoritilishi ushbu maqolada yoritilgan.

Kalit so'zlar: huquq, xalqaro, davlat, ommaviy, tashkilot, BMT, Xavfsizlik Kengashi, Jahon Milliy Banki, munosabatlar, hamkorlik.

Xalqaro huquq tushunchasi xalqaro ommaviy huquqni bildiradi. Xalqaro ommaviy huquq davlatlararo milliy munosabatlarni, davlatlar bilan xalqaro tashkilotlar xalqaro miqyosda fuqarolarning asosiy huquq, burch va erkinliklarini xalqaro huquq doirasida xalqaro nizo va kelishmovchiliklarni hal qilish bilan bog'liq hamda boshqa munosabatlarni o'zida ifodalaydi. Davlat ichki huquqlaridan farqli ravishda xalqaro huquq obekti o'z mazmun mohiyati jihatidan alohida davlat vakolatidan tashqariga chiquvchi xalqaro, aniqrog'i davlatlararo munosabatlar hisoblanadi. Hozirgi zamon xalqaro huquqi xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquqqa bo'linadi. Xalqaro ommaviy huquq xalqaro munosabatlarda qatnashadigan davlatlar va boshqa huquq subektlarining o'zaro munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Xalqaro ommaviy huquq xalqaro shartnomalar huquqi, diplomatik va konsullik huquqi, xalqaro tashkilotlar huquqi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq, xalqaro iqtisodiy huquq, xalqaro ekalogiya huquqi, xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro dengiz huquqi, xalqaro havo huquqi, xalqaro kosmik huquqi kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Xalqaro huquqni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillari bu barcha jihat tomonidan umum e'ritof etiladigan tamoyillari mavjud. xalqaro huquqning aksariyat tamoyillari BMT Ustavining 2-moddasida bayon etilgan. Ular BMT Ustaviga muvofiq, davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli Xalqaro huquq tamoyillari

to'g'risidagi deklaratsiyasida hamda yevropa Xavsizlik va hamkorlik kengashi ning yakunlovchi hujjatida batafsil yoritib berilgan|.Bular quyidagilardir:kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;davlatlarning xalqaro hamkorligi;davlatlarning suveren tengligi;xalqaro millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi;davlatlarning xalqaro majburiyatlatrini vijdonan bajarishi;chegaralar daxlsizligi;davlatlarning hududiy yaxlitligi;inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishdir. Jahon hamjamiyati oldida turgan umumbashariy muommolarni hal etish zaruriyatini ifoda etuvchi yangi tamoyillar ham shakllanmoqda. Zamonaviy xalqaro huquqning asosiy tamoyillari "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi qonunida mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu qonun 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan. Hozirgi kunda yuridik fakultetlarda "Xalqaro ommaviy huquq va davlat huquqiy fanlar" kafedrası, "Xalqaro xususiy huquq va fuqarilik huquqiy fanlar" kafedrası faoliy olib boradi. Shuningdek asosiy shtatda 22 nafar professor - o'qituvchilar faoliyat olib bormoqda. Turli xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, BMT hujjatlari xalqaro huquqning asosiy bazasi hisoblanadi. Xalqaro universal tashkilot sifatida BMT doirasida inson huquqlarini himoya qilishning universal xalqaro mexanizmi mavjud bo'lib u ko'p tarmoqlangan tuzilmalardan iborat. BMTning asosiy organlari ham u yoki bu darajada xalqaro huquqlarni himoya etishga taalluqli masalalar bilan shug'ullanadilar. Xalqaro huquqiy tartibni faqat uning kamchiliklari yuridik tengligini hurmat qilish orqali ta'minlash mumkin. Har bir davlat xalqaro tizimning boshqa ishtirokchilari suverenitetlarini hurmat qilshi kerak.

Foydalanilgan manbalar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi;
2. "Yuridik adabiyotlar publish"
3. "Xalqaro huquq" darsligi

**IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING BUGUNGI KUNDAGI TARBIYAVIY
AHAMIYATI**

ABDUVAITOV ELDORBЕК FARXOD O'G'LI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

e-mail: eldorbekstudent@gmail.com

tel: +998944224711

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom Al-Buxoriy hadislarning bugungi kundagi hayotimizda tarbiyaviy ahamiyati, har bir hadisning o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyati yetuk, komil inson bo'lib voyaga yetishida o'ziga xos o'rni borligi haqida atroflicha fikr-mulohazlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Payg'ambar, hadis, muhaddis, avlod, tarbiya, meros, ilm, zikr, alloma, axloq, ma'naviyat, e'tiqod, halollik, poklik, rostgo'ylik.

**ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ХАДИСОВ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ
СЕГОДНЯ**

Аннотация: В данной статье имама Аль-Бухари воспитательное значение хадисов в нашей жизни сегодня, каждый хадис имеет свою роль в духовном росте молодого поколения как зрелой и совершенной личности.

Ключевые слова: Пророк, хадис, мухаддис, поколение, воспитание, наследие, знание, зикр, аллама, нравственность, духовность, вера, честность, чистота, правдивость.

**THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF IMAM AL-BUKHARI'S HADITHS
TODAY**

Abstrakt: In this article, Imam Al-Bukhari's educational significance of hadiths in our life today, each hadith has its own role in the spiritual growth of the young generation as a mature and perfect person.

Keywords: Prophet, hadith, muhaddis, generation, upbringing, heritage, knowledge, zikr, allama, morality, spirituality, faith, honesty, purity, truthfulness.

Kirish.

Yurtimizda yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning bebaho ilmiy-ma'naviy merosini tadqiq qilish, ular qoldirgan asarlarni ilmiy-izohli tarjima qilib, ommalashtirish hamda xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, arxiv fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalarning elektron nusxalarini to'plab, xalqimizga yetkazish dolzarb masalalarga aylanmoqda. Bu borada prezidentimizning quyidagi fikrlarini eslab o'tish joizdir: "Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida "muhaddislar sultoni" deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz". Bu mo'tabar zot merosining gultoiji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami – "Al-Jome as-Sahih" kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana, o'n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini imon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda". Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy milodiy 810-yilda (194- hijriy) Buxoro shahrida dunyoga kelib, bolalik chog'laridanoq Buxorodagi yetuk allomalardan dars olib, hadis ilmida kuchli xotira va o'tkir zehn sohibi bo'lib voyaga yetgan. Imom al-Buxoriy hadis ilmida kamolotga erishib, o'zi yod olgan 600 mingga yaqin hadislarini sahih va g'ayri sahihlariga ajratdi. Imom al-Buxoriy Islom olami va muhaddislar orasida "Imom ul-Muhaddisiyn" (Barcha muhaddislarining peshvosi) deb hurmat bilan tilga olinadi. Imom al-Buxoriyning "Al-Jome as-Sahih" (Ishonarli to'plam) asari haqida so'z ketganda shuni aytish mumkinki, mazkur manba Islom dini ta'limotida Qur'oni Karimdan keyin asosiy manba sifatida foydalaniladi. Imom Buxoriyning ijodiy merosi o'zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to'la-to'kis qamrab olganligi bilan kishini hayratga soladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 14- 15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, "Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo'nim topgan ushbu maskanda o'ziga xos ma'naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o'ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o'rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug' ajdodlarimiz

bilan faxrlanish tuyg'usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas'uliyatini his etadi"deya ta'kidlab o'tgan edi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

Darhaqiqat, Imom Ismoil al-Buxoriy asarlarida odob-axloq masalalarini yorituvchi hadislar jamlangan bo'lib, ijtimoiy turmushda hamda insonlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni tashkil etish chog'ida amal qilinishi lozim bo'lgan odob-axloq qoidalari borasida ma'lumotlar berilgan. Hadislarning inson hayotidagi ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Har bir hadisning o'z ma'nosini tushunib, o'rganib biz uchun ulardan amalda foydalanishimiz g'oyat ahamiyatlidir. Hadis o'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib, "xabar, gap, yangilik" degan ma'noni bildiradi. Islom dini ta'limoti asoslarini yorituvchi Qur'on Karimdan keyingi asosiy manba hadis hisoblanadi. Hadislarni to'plash va ularga muayyan tartib berish asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, uni eng bilimdon, turli fan asoslarini mukammal o'rgangan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishi (muhaddis)lar tartibga solib bergan. VIII-XI asrlarda to'rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug'ullangan. Hadislarda inson ma'naviy kamolotining mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallaganligi, o'z bilimi bilan artofdagilar va jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib yetishida muhim omildir deya ko'rsatiladi. Hadislar tarbiya manbai hisoblanadi. Hadislarni eshitib, tanishish, ko'rish, yodlash, mazmunini anglash, o'rganish orqali hayotimizda hadislardan ibrat olgan holda, ularni amalda hayotimizda qo'llab, ko'p o'zimizni tarbiyamizdagi kamchiliklarni tuzatishimizga yordam beradi. Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, ushbu fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiqko'ngillik, ota-onani e'zozlash, hurmatlash, doimo ota-onalarimizni duolarni olish, ularni haqqiga duo qilish, ularni asrab-avaylash, o'rni kelganda ular uchun bizlardan faxrlanish tuyg'ularini yarata olishimiz, doimo yuzlarini yorug' qilish, qaddilarini biz sababli baland tutish, doimo hurmatlarini joyiga qo'yish, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga mehrimizni bera olish, hurmatlarini joyiga qo'yish, ularga g'amxo'rlik qilish, kattaga hurmatda kichiklarga izzatda bo'lish kabilar muhim hisoblanadi. Undan tashqari o'z ona Vatanimizga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, do'stlik, oliyjanoblik, rahmshafqatlik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi

borasidagi pand-nasihatlar ham o'z aksini topganki, bularning barchasi Qur'oni Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Hadislar mazmunan har bir mo'inning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma'naviy kamolotga da'vat etadi. Bu kabi xislatlarni har birimiz o'zimizda shakllantirishimizga yana bir yordamchi manba, tarbiya manbalardan biri bu hadislarini amalda tatbiq etishimiz hisoblanadi. Hadislarda ibrat olinadigan jihatlar juda ham ko'p uchraydi. Bizning har bir qilgan yaxshi amalimiz, so'zlarimiz o'zimiz uchun ota-onamizga bildirilgan minnatdorchilik orqali faxr, hurmat, kabi tuyg'ularini uyg'otishga sabab bo'ladi. Hadislarda tarbiya mavzusiga doir hadislarini o'rganishimiz orqali biz o'zimiz ko'p narsalarni o'rganib olamiz. O'rgangan hadislarimizni hayotda amalda qo'llab har bir masalada, mavzularda, bir qancha xatoliklarimizni to'g'rilab olishga harakat qilamiz. O'rganganlarimizni boshqalarga o'rgatishga harakat qilamiz va tatbiq etamiz. Har bir kishining ota-onasiga yaxshilik qilganidek, bolalariga ham yaxshilik qilishi shartligi, zero, inson bo'ynida ota-onaning haqqi bo'lganidek, bolaning ham haqqi borligi xususidagi g'oyalar Qur'oni Karimda ham, Hadisi sharifda ham uqtiradi. Hadislarda kishilarning bir-biri bilan do'st, tinch-totuv yashashlari, o'zaro muruvvatli, mehr-shafqatli bo'lishlari kerakligi haqidagi g'oya ham ilgari suriladi. Bu g'oya opa-singil, aka-uka, qarindosh hamda qo'shnilar o'rtasida tashkil etiladigan muomala va munosabatlar mazmunining ochib berishga yo'naltirilgan hadislar mohiyatida aks etadi. Ma'naviy-axloqiy xislatlarga ega bo'lgan inson ota-ona, opa-singil, aka-uka va qo'shnilariga yaxshilik qiladi, bu yaxshilik ular o'rtasidagi totuvlikni keltirib chiqaradiki, pirovardida jamiyat taraqqiy etadi, tinchlik barqaror bo'ladi, aholi farovon hayot kechiradi. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib hisoblanadi. Hadislar har bir shaxsni aqliy, jismoniy jihatdan kamolga yetkazishga oid e'tiqod va iymondan iborat bo'lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, oliyjanob bo'lish, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qilib yeyish, jaholat va jaholatparastlikka yo'l qo'ymaslik, o'z birodarining, qarindosh-urug'larining, millatining va vatanining qadriyatlarini asrashdan iboratdir. Hadislardan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Xulosa

Hadislar tarbiya manbai hisoblanadi. Hadislarni eshitib, tanishish, ko'rish, yodlash, mazmunini anglash, o'rganish orqali hayotimizda hadislardan ibrat olgan holda, ularni amalda hayotimizda qo'llab, ko'p o'zimizni tarbiyamizdagi kamchiliklarni tuzatishimizga yordam beradi. Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, ushbu fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-onani e'zozlash, hurmatlash, doimo ota-onalarimizni duolarni olish, ularni haqqiga duo qilish, ularni asrab-avaylash, o'zni kelganda ular uchun bizlardan faxrlanish tuyg'ularini yarata olishimiz, doimo yuzlarini yorug' qilish, qaddilarini biz sababli baland tutish, doimo hurmatlarni joyiga qo'yish, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga mehrimizni bera olish, hurmatlarini joyiga qo'yish, ularga g'amxo'rlik qilish, kattaga hurmatda kichiklarga izzatda bo'lish kabilar muhim hisoblanadi. Undan tashqari o'z ona Vatanimizga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, do'stlik, oliyjanoblik, rahmshafqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z aksini topganki, bularning barchasi Qur'oni Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Hadislar mazmunan har bir mo'minning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma'naviy kamolotga da'vat etadi. Bu kabi xislatlarni har birimiz o'zimizda shakllantirishimizga yana bir yordamchi manba, tarbiya manbalardan biri bu hadislarini amalda tatbiq etishimiz hisoblanadi. Hadislarda ibrat olinadigan jihatlar juda ham ko'p uchraydi. Bizning har bir qilgan yaxshi amalimiz, so'zlarimiz o'zimiz uchun ota - onamizga bildirilgan minnatdorchilik orqali faxr, hurmat, kabi tuyg'ularini uyg'otishga sabab bo'ladi. Hadislarda tarbiya mavzusiga doir hadislarini o'rganishimiz orqali biz o'zimiz ko'p narsalarni o'rganib olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1]. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. "Sharq" nashriyoti, 2011. 69-bet.
- [2]. Abu Iso at-Termiziy. Sunani Termiziy sharhi. 1-j. Toshkent "Irfonnashr" 2021. 143-bet.
- [3]. I.A.Karimov " Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" 2008. 86-bet.
- [4]. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi // Xalq so'zi, –2016 yil 8 dekabr.

**O'RTA OSIYO OLIMLARINING O'SIMLIKLAR HAQIDAGI FIKRLARI VA
MA'LUMOTLARI.**

Oybekov Asadbek Sherali o'g'li

Andijon davlat Pedagogika Instetuti

Talabasi

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo olimlari, o'simliklar, botanik olimlar, ilmiy izlanishlar.

Anotatsiya: Ushbu tezisda O'rta Osiyo shu jumladan jahon allomalarining o'simliklar haqidagi fikrlari keltirilgan bo'lib hozirgi kundagi yangi adabiyotlar o'rganilib chiqildi va eng muhim ma'lumotlar keletirilib o'tildi.

Ключевые слова: Ученые Средней Азии, растения, ботаники, научные исследования.

Аннотация: В этом тезисе приведены мнения мировых богов, в том числе Средней Азии, о растениях, изучена новая литература и представлены важнейшие сведения.

Abstract: This thesis presents the opinions of all peoples of Central Asia, including the world, about plants, and new literature has been studied today, and the most important information has been compiled.

Kirish

O'rta Osiyo olimalarining o'simliklar haqidagi fikrlari va ma'lumotlari ilgari va zamonaviy tadqiqotlarga asoslangan. Bu olimalarning o'simliklar bilan bog'liq bilimlar, zamonaviy iqtisodiyot, ekologiya, tabiiy resurslar va turizm sohasida ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarga aloqador.

O'rta Osiyo o'simliklarining o'simlik turlari bo'yicha katta davlatlararo tadqiqotlar olib borilgan. Misol uchun, bu mintaqada yuqori hosilali cho'zilgan mahsulotlar, masalan, paxta, paxtachilik mahsulotlari, mevalar va sabzavotlar, qandaydir ta'sirchan

o'simlik turida ishlatiladigan asalari va boshqa o'simliklar bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar va ta'lim jarayonlari amalga oshirilmoqda.

O'rta Osiyo o'simliklarining iqtisodiyotdagi ahamiyati ham katta. O'simliklar mahsulotlar, ichki va tashqi savdo, va eksportda katta muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu mintaqada paxtachilik, mevalar, asalari, korxonalar va boshqa o'simliklar iste'mol qilingan, shuningdek, asosiy to'qimachilik sanoati, farmatsevtika, parfümeriya sanoati va kosmetika sanoati kabi sohalarda ham o'simliklar muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili.

O'rta Osiyo olimlari ekologik muhitni saqlash va tabiiy resurslarni muhofaza qilishga yordam beradi. Ular o'simliklar, hayvonlar, suv manbalarini muhofaza qilish, eroziyani oldini olish va iklim o'zgarishlariga qarshi qo'llanishlar, tabiiy ekosistemalarni saqlash va yangilashda muhim ahamiyatga ega. Bu olimlar ta'lim va o'quv sohasida ham ahamiyatga ega, chunki uning orqali ekologik muhitni saqlash, tabiiy resurslarni boshqarish va tabiiy atrofni muhofaza qilish masalalari o'rganiladi.

Evolutsiya nazariyasini birinchi bo'lib yaratgan J.B. Lamark (1744-1829) ijodi tabiiy klassifikatsiyaning taraqqiy etishida juda muhim rol o'ynaydi. Tabiiy tizimni takomillashtirishda J.B.Lamark o'zining katta hissasini qo'shdi. Lamark turlar orasida ko'pincha keskin farq boimasligini angelay oldi va "Turlarning paydo bo'lishi" degan o'z nazariyasini yaratdi. Ch.Darvin ham turlarning rivojlanishi to'g'risida juda ko'p asarlar yaratdi. Yuqorida aytib o'tilgan olimlardan tashqari, o'simliklar sistematikasini rivojlantirishda Venshteyn, Kuznetsov sistemalari ham katta rol o'ynaydi. Mashhur nemis botanigi A.Engler (1844-1930) butun dunyo tan olgan filogenetik tizimni ishlab chiqqan. Engler tizimida barcha o'simliklar dunyosi 17 ta bo'limga ajratiladi.[1.14 sahifa]

O'zbekiston xalqaro darajadagi bir nechta botanik olimlari bilan iftixor qiladi. Ulardan ba'zilari quyidagi ilmiy ishlar bilan tanishish mumkin:

Abdurahmon Avrorov: Abdurahmon Avrorov O'zbekistonning mashhur botanigi bo'lib, o'rmonchi o'limlarning turlari, ularning o'simliklar bilan bog'liq biologik xususiyatlarini, O'zbekistonning yabon viloyatlari, janglik va tog' vaqtlari o'simliklarini

o'rganib chiqqan. Uning ilmiy ishlaridan biri "O'rmonchi o'limlari (Rhamnaceae) oilalarining florasini tahlil qilish" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Sadriddin Vasilyevich Vasiliev: Sadriddin Vasiliev, O'zbekiston va O'rta Osiyo florasini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lgan bir botanik olimdir. Uning asosiy ilmiy ishi "O'rta Osiyo yabon o'simliklari" nomi bilan mashhur. Uning ishi O'rta Osiyo xalqlari tomonidan ham qadr qilingan va o'simliklarning turlarini, ularning tarixiy rivojlanishini va o'zaro bog'liq bo'lgan biologik muammosini tahlil qiladi.

Olimjon Yoqubov: Olimjon Yoqubov, O'zbekiston botanigining mashhur vakili bo'lib, mevalar, mevali o'simliklar va ularning agronomik muammolariga oid ko'plab ilmiy ishlar yaratgan. Uning "O'simlik biologiyasi" nomli ilmiy ishi, o'simliklarning morfologiyasi, fiziologiyasi, seleksiyasi, ziravorlik siyosati va jinsiy ifloslanishiga oid asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Izzatulla Rakhimov: Izzatulla Rakhimov, O'zbekiston tabiiy fanlari sohasida tanilgan va botanika sohasida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan bir olim. Uning ilmiy ishi "O'simlik fizika-kimyoviy muammosi" nomi bilan mashhur. U rivojlanayotgan o'simliklar organlarining fizika-kimyoviy xususiyatlarini va ularning kimyoviy protsesslarini tahlil qilgan.

Bu olimlar faqat bir necha misoldan iborat, O'zbekiston botanika sohasidagi olimlar soni katta. Bu olimlar bilan birga, O'zbekiston botanika sohasidagi boshqa ko'plab olimlar ham ilmiy ishlar bilan tanishgan

Pratov O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, b.f.d., professor, Turon Fanlar akademiyasi akademigi, botanika fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan olim. Bu va boshqa taniqli o'zbek olimlari o'z fanlari-ning yetuk mutaxassislari bo'lish bilan birga, ko'plab shogirdlar yetishtirishgan, o'z sohalari bo'yicha ko'plab ilmiy maqolalar, kitoblar yozishgan.[2. 6 sahifa]



Musayev Jo'ra Azimboyevich (1928.5.12, Yangiyo'l shahri – 2014.27.10) — genetik olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1984), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1980), biologiya fanlari doktori (1973), professor (1975). O'rta Osiyo universitetini tugatgan (1948). ToshDU darvinizm va genetika kafedrası assistenti (1952-1956), dotsenti (1956-1974), tayyorlov fakulteti umumiy nazariy fanlar kafedrası mudiri (1961-1966), g'o'za xususiy genetikasi — problema laboratoriyasi mudiri (1974 yildan), darvinizm va genetika kafedrası mudiri (1981—1984), O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'simliklar eksperimental biologiyasi instituti direktori (1982—1984), O'zbekiston Fanlar akademiyasi Prezidiumi a'zosi (1984—1988), Prezidiumning bosh ilmiy kotibi (1985—1988), O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'simliklar eksperimental biologiyasi instituti g'o'za xususiy genetikasi laboratoriya mudiri (1989—1992), O'zbekiston Fanlar akademiyasi Genetika instituti tashkilotchilaridan. Shu institut o'simliklar genetikasi bo'limi boshlig'i (1992—2000), ilmiy maslahatchisi (2000 yildan). O'zMU biologiya-tuproqshunoslik fakulteti genetika va tsito-embriologiya kafedrası mudiri (2000 yildan).

Jo'ra Musayev g'o'zaning irsiy toza genetik kolleksiyasini yaratgan. Birinchi bo'lib allotetraploid g'o'zalar belgi va xususiyatlarini, genlarning kombinativ ta'sirida irsiylanishi to'g'risidagi genetik nazariyaga asos solgan. Jo'ra Musayev va shogirdlari g'o'zaning monosomik, translokatsion va tsitologik markerlangan liniyalari kolleksiyasini yaratishgan. Jo'ra Musayev g'o'zaning «Gulbahor», «Navbahor»,

«Armug'on» navlari mualliflaridan biri. «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan (1998). [2.]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BOTANIKA (O'quv qo'llanma) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan
2. <https://uztext.com/90972-text.html>

Structural-semantic features of commercial terminolexic

Akramov Bekzod Qahramonovich

Bukhara State University

Abstract: This article examines the structural-semantic features and etymological features of the terminology "Financial and commercial activity" in the Uzbek language. The excessive number of differences between Uzbek terminology and other languages is explained by the existence of temporary ethno-cultural spaces in it, one of their main features is the possibility of elimination in certain extralinguistic conditions.

Key words: thematic group of vocabulary, interrelated vocabulary, borrowing, lexical spaces, flow of borrowings, extralinguistic factors.

There is no doubt that the modern Uzbek language, which serves the field of commercial and financial activities, is full of shortcomings. The components of the terminological group "Finance and commercial activity" also include common omissions (for example: dealer, broker, deposit, sale, distributor, share, grant, investment, leasing, price). A group of highly specialized terms used (for example: acceptance, letter of advice, attachment, decouper, debor, delivery, barrier, call credit) are included among these problems. At this point, the question arises, is this situation natural or is it an artificial "contamination" of the original terminology with foreign elements?

If we consider this phenomenon to be regular, what extralinguistic and linguistic processes became the objective conditions for the abundance of Russian-speaking words in the terminology of the language under consideration? If we consider the interrelated groups of Uzbek and Russian dictionaries from the point of view of lacunarity, we can find an answer to this question.

In particular, the terms "lacuna" and "lexical lacuna" are interpreted by different departments of linguistics and cultural studies using different conceptual units, as shown by the analysis of theoretical literature. In linguistics and psycholinguistics, "lacunae" are understood as the main elements of the national identity of the linguistic

and cultural community, which make it difficult for receivers of other cultures to understand some parts of the texts. The term "lacuna" is what linguist S. Stepanov called them "gaps", "white spots on the semantic map of the language". There are other terms for the concept of "Lacuna" (called "gap" in English-language literature): "accidental notes in speech patterns", ethnoeidemes, linguocultures, ethnolinguocultures. For example, according to the point of view presented in the monograph G.A. Antipova and others "The text as a cultural phenomenon", spaces are linguistic (lexical, grammatical, stylistic) and cultural (ethnographic, psychological, behavioral, kinesthetic and others) can be. Moreover, gaps can be not only intercultural or interlinguistic (emerging in the process of intercultural communication), but also intercultural (intralinguistic).

For the purpose of this research paper, as a working definition, it seems that we should choose the interlinguistic interpretation of the phenomenon, that is, the interpretation used in translation theory. A lacuna is the absence of a unit present in one language but present in another. The authors say that "the main feature of gaps is that they appear in the process of communication, in the conditions of communication between two cultures." In the work "Language and Translation" by the translator Barkhudarov, we find the following definition: "Gaps are vocabulary units of one of the languages, which for some reason do not correspond lexically. are the composition of another language". The additional linguistic "state of contact between two cultures" clearly shows that the linguistic phenomenon of vocabulary acquisition is related to the existence of ethnographic (cultural, intercultural) spaces. Ethnographic spaces sometimes exist in one culture in another Thus, in the Uzbek language, along with the word "lawyer" there are several other words to define the types of legal profession.

In linguistics, the word does not have a corresponding one-word equivalent: legal representative (has the right to speak in courts), lawyer (prepares cases for a lawyer), defender (advises clients), consultant (consultant on various legal issues), lawyer (highly qualified lawyer). In other cases, there is a wide gap in the language, because it is often not necessary to distinguish between things in a certain culture that are permanently distinguished by other cultures. However, ethnographic gaps, in our view, are permanent and temporary. can be Permanent ethnographic spaces are almost never filled with loans, they exist statically as an integral part of this or that linguistic picture of the world, giving it a certain identity. Thus, examples of permanent lacunae

in the Uzbek language are dealer, broker, deposit, sale, distributor, share, grant, investment, lease." These words entered the Uzbek language for commercial use from foreign languages. Temporary ethnographic spaces are a dynamic phenomenon associated only with certain stages of language development. Temporary gaps can be filled (increased) with loans at any time. Such spaces have the following characteristics (determined based on a comparison of Uzbek and Russian language materials):

- 1) The denotative basis of the gap is related to a certain field of economy, technology, politics, culture;
- 2) One of the compared language cultures does not have experience in this field of activity compared to the other, but the vector of development is aimed at overcoming it;
- 3) One of the compared language cultures perceives the gap as an obstacle in communicative activity;
- 4) The temporal gap can be eliminated under the influence of extralinguistic factors.

Note that the process of eliminating lacunae attracts the attention of researchers and is defined as a compensation for temporally non-equivalent terms in particular. The analysis of the literature shows that elimination of deficiencies in texts aimed at a foreign cultural recipient can be done in two ways: filling (translation using analog) and compensation. The most common way to compensate for deficiencies in financial and commercial activities is transcription (transfer at the phoneme level) and transliteration (transfer at the grapheme level). In turn, it became a translation that was mastered and frequently used at the grapheme and phoneme level.

A brief analysis of the features of Uzbek terminology in "Finance and Commercial Activity" allows us to form its main linguistic features: originality, capacity and description of semantics, compactness. The above two features (semantic capacity and structural compactness) make Uzbek terminology attractive as a source of enrichment, particularly for the Uzbek language.

Thus, the pragmatic approach, the principle of saving language efforts and the situation of inter-ethnic communication help the natural process of filling the temporary ethno-cultural gaps in the Uzbek language with words from other languages.

References :

1. Guy Rondeau, Introduction à la terminologie, Boucherville, Québec, Gaëtan Morin, 2e éd., 1984, 238 p. (ISBN 2-89105-137-8).
2. Akramov B.Q. (2022). The business terminology such as special terms. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 352–360.
<http://erus.uz/index.php/er/article/view/896>
3. Akramov B.Q. (2022). Features of tourism terminology in french language.
http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/download/1615/1054
4. Qahramonovich B.A. (2023). Structural - Semantic and Linguo-Cultural Features of Commercial Terminology. <https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/1271/1095>
5. Akramov, B.Q. (2023). Study of evolution in the terminosystem of commerce. Canadian conference. <http://aidlix.com/index.php/ca/article/view/841>

MUNDARIJA

1.	NARKOLEPSIYA VA UNING TURLI XIL KO'RINISHLARI TAVSIFI Salimova Marjona Salomovna	5-9
2.	CHANGLANISH VA URUG'LANISHNING AHAMIYATI Muhammadjonov Burhonbek, Fozilov Muhammad Amin	10-18
3.	Xalqaro huquq sohasining ahamiyati Tangirov Jaloliddin	19-20
4.	IMOM AL-BUXORIIY HADISLARINING BUGUNGI KUNDAGI TARBIYAVIIY AHAMIYATI ABDUVAITOV ELDORBEEK FARXOD O'G'LI	21-26
5.	O'RTA OSIYO OLIMLARINING O'SIMLIKLAR HAQIDAGI FIKRLARI VA MA'LUMOTLARI. Oybekov Asadbek Sherali o'g'li	27-31
6.	Structural-semantic features of commercial terminolexic Akramov Bekzod Qahramonovich	32-35